



THE IDEOLOGICAL LANDSCAPE OF THE WORLD AND GLOBALIZATION PROCESSES

Hamdam Tukhtayevich Umarov

*Independent Researcher at the Institute for Social and Spiritual Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: ideological landscape, globalization, ideological threat, ideological polygon, religious extremism, information warfare, mass culture, national ideology, ideological immunity, cosmopolitanism, chauvinism, ideological prevention.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the complex and contradictory nature of the emerging global ideological landscape under the influence of globalization. It uncovers the dangerous factors underlying the ideological struggles waged by various political, religious, and cultural forces to achieve ideological dominance. In particular, forms of ideology such as aggressive nationalism, religious extremism, cosmopolitanism, “mass culture,” and global chauvinism are assessed as real threats to sustainable development and social stability. The article also extensively explores the concept of ideological polygons, ideological manipulations carried out through information technologies, and ideological trends that negatively affect the consciousness of young people.

DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI VA GLOBALLASHUV JARAYONLARI

Hamdam To'xtayevich Umarov

*Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti Mustaqil tadqiqotchisi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mafkuraviy manzara, globallashuv, g'oyaviy tahdid, mafkuraviy polygon, diniy ekstremizm, axborot urushi, ommaviy madaniyat, milliy mafkura, mafkuraviy immunitet, kosmopolitizm, shovinizm, mafkuraviy profilaktika.

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayoni ta'sirida jahon miqyosida shakllanayotgan mafkuraviy manzaraning murakkab va qarama-qarshi holatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Unda turli siyosiy, diniy va madaniy kuchlar tomonidan g'oyaviy ustunlikka erishish maqsadida olib borilayotgan mafkuraviy kurashlar zamiridagi

xavfli omillar ochib beriladi. Xususan, tajovuzkor millatchilik, diniy ekstremizm, kosmopolitizm, “ommaviy madaniyat”, global shovinizm kabi mafkura shakllari barqaror taraqqiyot va ijtimoiy osoyishtalik uchun real tahdid sifatida baholanadi. Maqolada shuningdek, mafkuraviy poligonlar tushunchasi, axborot texnologiyalari vositasida olib borilayotgan g‘oyaviy manipulyatsiyalar, yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ideologik oqimlar keng yoritiladi.

ИДЕОЛОГИЧЕСКИЙ ЛАНДШАФТ МИРА И ПРОЦЕССЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Хамдам Тухтаевич Умаров

Независимый исследователь

Института социально-духовных исследований

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: идеологический ландшафт, глобализация, идеологическая угроза, идеологический полигон, религиозный экстремизм, информационная война, массовая культура, национальная идеология, идеологический иммунитет, космополитизм, шовинизм, идеологическая профилактика.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически проанализированы сложные и противоречивые аспекты формирующегося под влиянием глобализации идеологического ландшафта на мировом уровне. Раскрываются опасные факторы, лежащие в основе идеологической борьбы, ведущейся различными политическими, религиозными и культурными силами с целью достижения идейного господства. В частности, такие формы идеологии, как агрессивный национализм, религиозный экстремизм, космополитизм, «массовая культура» и глобальный шовинизм рассматриваются как реальные угрозы устойчивому развитию и общественному спокойствию. Также в статье подробно освещаются понятие идеологических полигонов, идеологические манипуляции через информационные технологии и идеологические течения, оказывающие негативное влияние на сознание молодёжи.

Kirish

XXI asr insoniyat uchun global va chuqur mafkuraviy o‘zgarishlar davriga aylandi. Bugungi kunda dunyodagi g‘oyaviy kurashlar shunchalik keskinlashmoqdaki, ularning ta’siri ba’zan an’anaviy harbiy to‘qnashuvlardan ham xavfliroq tus olmoqda. Mafkura maydonlari ya’ni ma’lum g‘oyalar va qarashlar asosida olib borilayotgan axborot va ta’sir qurollari endilikda yangi turdagi “mafkuraviy poligon”larga aylanmoqda.[2]

Dunyoning geografik xaritasida hududiy va siyosiy chegaralar geografik jihatdan aniq belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, zamonaviy muammolar bu chegaralarni buzib o'tadigan, umuminsoniy darajada ta'sir ko'rsatayotgan tus oldi. Ekologik muvozanatning buzilishi, ma'naviy tanazzul, narkotrafik, terrorizm, axborot xurujlari kabi xavflar hech qanday davlatning ichki ishi bo'lib qolmayapti. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va axborot almashinuvining mislsiz tezligi globallashtirish jarayonini chuqurlashtirmoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda, balki g'oyalar va qadriyatlar maydonida ham ulkan o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Inson zehni va ongi uchun olib borilayotgan kurash, aslida, insoniyatning kelajak manzarasini belgilab beruvchi hal qiluvchi omillardan biridir.

Asosiy qism

Butun insoniyat uchun yer sayyorasi yagona hayot makoni ekani kundek ravshan haqiqatdir. Ammo tarix zarvaraqlari, bu umumiy makonda turli davrlarda ziddiyatlar, manfaatlar to'qnashuvi, bosqinlar va urushlar aslo to'xtamagan. Insoniyat o'z mavjudligini saqlab qolish va ustunlikni ta'minlash yo'lida asrlar davomida turli shakldagi to'qnashuvlarga bosh urgan. Dastlab hududiy chegaralarni kengaytirish, tabiiy boyliklarni egallash va siyosiy hukmronlikni ta'minlash kabi maqsadlarda olib borilgan urushlar, vaqt o'tgan sayin, yangi qiyofa kasb etdi. Xususan, tarix sahnasida Aleksandr Makedonskiy, Chingizxon, Amir Temur kabi zabtkor sarkardalar tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lamli yurishlar, keyinchalik Yevropa mustamlakachiligi orqali boshqa qit'alarni egallash harakatlari bu jarayonlarning ilk bosqichlari bo'lgan. Ammo ularning ko'lami va shakli chegaralangan edi. Ularning aksariyati muayyan mintaqalar doirasida kechgan va istisno holatlar sifatida tarixda qoldi.[3]

XX asrga kelib, insoniyat tarixidagi urushlar global tus oldi. Natijada, ikkita jahon urushi insoniyatning eng qonli va vayronkor qarama-qarshiligi sifatida butun dunyo davlatlarini qamrab oldi. Bu davrga kelib, harbiy texnologiyalar shunday darajada takomillashdiki, qurollar nafaqat bir mamlakat, balki butun insoniyatni yo'q qilish qobiliyatiga ega bo'lib qoldi. Shu bilan birga, jismoniy to'qnashuvlar o'rnini bora-bora g'oyalar to'qnashuvi egallay boshladi. Endi, urushlar ko'proq tanklar va raketa bilan emas, balki axborot, g'oya, targ'ibot va ommaviy ongga ta'sir vositalari orqali olib borilmoqda. Bu global muammolar zamonaviy mafkuraviy ziddiyatlarning shakllanishi uchun tarixiy zamin yaratdi.

Zamonaviy davrda harbiy texnologiyalar shunday darajaga yetdiki, ular nafaqat ma'lum bir hududni, balki butun inson sivilizatsiyasini bir necha marta yo'q qilib yuborish qobiliyatiga egadir. Ammo bugungi tahdidlar faqat fizik yo'qotishlar bilan cheklanib qolmayapti. Yangi tipdagi xavf g'oyaviy ta'sir va mafkuraviy ekspansiya ko'lamida namoyon bo'lmoqda. Globallashtirish axborot makonida mafkuraviy vositalar orqali ta'sir doirasini kengaytirishga

urinayotgan siyosiy kuchlar tobora faollashmoqda. Ularning g'oyalari ko'pincha demokratik qadriyatlarga zid bo'lib, inson erkinligi, tengligi va millatlararo bag'rikenglik kabi universal tamoyillarga tahdid soladi. Ayniqsa, tajovuzkor millatchilik, shovinizm, neofashizm, kommunizm, irqchilik va diniy ekstremizm g'oyalari shular jumlasidandir.[4]

Bu mafkuralar nafaqat davlat siyosatini radikallikka yetaklashi, balki butun jamiyatlar ichida ijtimoiy parokandalik va qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Eng xavfli jihati shundaki, ular inson ongi va qalbi uchun kurash olib boradi, bu esa axloqiy, ma'naviy va madaniy mezonlarni yemirib, ma'naviy muvozanatni izdan chiqaradi. Ayni vaqtda realigida aqidaparastlik, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm mafkuraviy ta'sirning eng xavfli shakllaridan biriga aylangan. Ular faqat qurol bilan emas, mafkuraviy manipulyatsiya qilish va axborot xurujlari orqali yosh avlod ongiga kirib bormoqda. Ana shunday sharoitda global tinchlik, barqaror taraqqiyot va insoniy birdamlikni saqlash, ayniqsa, yoshlar ongini bu kabi bug'zunchi g'oyalardan himoya qilish eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Kishilik jamiyati tarixi inson ruhiyatida oliyjanob fazilatlar barpo etilishi bilan birga, insoniyatga xos bo'lgan g'ayriinsoniy illatlarning turli ko'rinishlariga ham guvoh bo'lgan. Afsuski, bu yomonliklar tarix davomida insoniyatga hamroh bo'lib, har bir davrda o'ziga xos shamoyil va shakllar kasb qilgan. Hozirda esa ushbu yovuzliklar dunyo tinchligi va totuvligiga, millatlararo hamkorlikka va insoniyatning yagona birlik sifatida erkin taraqqiy etishiga jiddiy tahdid solmoqda.

Hozirgi kunda dunyoni diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm, giyohvandlik, madaniyatning ommaviylashuvi, kosmopolitizm yoki "dunyo fuqarosi" konsepsiyasi hamda "vatansizlik" g'oyasi, ludomaniya — ya'ni o'yinbozlik, ayniqsa telefon, kompyuter va internet o'yinlariga qaramlik, missionerlik va prozelitizm, nigilizm - an'analar va qadriyatlarga bepisandlik, fashizm va neofashizm kabi zo'ravonlik shakllari, shuningdek egotsentrizm va individualizm kabi ijtimoiy tendensiyalar xavfi ku sayin ortib bormoqda. Bundan tashqari, insoniyat OITS kabi global sog'liq muammolari, starizm -yulduzlarga beparvo taqlid, vandalizm - madaniy va tarixiy yodgorliklarga zarar yetkazish, axloqsizlik (foxishabozlik, behayolik, bir jinsli nikohlar) hamda vahshiyona ko'ngil ocharlik - heppining ham ta'sirida qolmoqda.[5]

Shovinizm esa millatlararo munosabatlarda, ko'p millatli davlatlar doirasida va keng geografik-siyosiy makonda o'zining mutlaq hukmronligini o'rnatishga intilish bilan namoyon bo'ladi. Bu hodisa buyuk davlat qurish yo'lida milliy tengsizlikni oqlash va targ'ib qilishga asoslangan, insoniyatga qarshi g'ayriinsoniy va xavfli siyosiy mafkura hisoblanadi. Zero, shovinizm milliy tengsizlikni himoya qiluvchi, ijtimoiy adolatsizlikka sababchi bo'ladigan yovuz kuchdir va uning jamiyatda tarqalishi barqarorlik va tinchlikka jiddiy xavf tug'diradi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi - tarixiy jarayonlarning murakkab natijasi bo'lib, uning paydo bo'lishida bir qator ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillar muhim rol o'ynagan. Tarixga nazar tashlaganda, bugungi kunda buyuk davlatlar maqomiga ega bo'lgan ba'zi mamlakatlar uzoq vaqt davomida ko'plab mintaqalarni o'zlarining "hayotiy manfaatlarini" hududi sifatida bosib olib, mustamlakachilik siyosatini faol yuritganliklari ma'lum bo'ladi. Bu mamlakatlar o'zlarining qudratini oshirish uchun tabiiy xom ashyo resurslariga egalik qilishga intilgan, shu orqali moddiy va ma'naviy boyliklarni o'zlashtirish orqali ulkan davlatlar barpo etishga erishgan.

Natijada, ular o'z atrofidagi boshqa davlatlar va xalqlar bilan munosabatda o'zlarini ustun, yagona va alohida mavqega ega deb hisoblashga boshladilar. Bu esa insoniyatning umumiy taqdiri va xalqlar kelajagini belgilashda mustaqil rol o'ynashni da'vo qilishga olib keldi. Ushbu mafkura, tarixda mumtozlik mafkurasi sifatida tanilgan va davlat siyosatining asosiy tamoyiliga aylanganda, uzoq davom etgan qonli urushlar, mintaqaviy vayronagarchiliklar hamda ko'plab xalqlarning qaram holatga tushishiga sabab bo'ldi.

Buyuk davlatchilik shovinizmining asosiy xavfi shundaki, u nafaqat iqtisodiy, siyosiy yoki harbiy kuchning yuksakligiga bog'liq, balki axborot makoni va mafkuraviy ta'sir vositalari orqali boshqalarga bosim o'tkazish imkoniyatlarining kengligi va turfa xil mexanizmlariga ega bo'lishidadir. Bu esa davlatlarga o'z g'oyaviy ta'sirini global miqyosda yoyish, boshqalarni o'z manfaatlarini yo'lida boshqarish va nazorat qilish imkonini beradi. Buyuk davlatchilik shovinizmi o'ziga xos tarzda pansovetizm bilan uyg'unlashib borayotganini kuzatish mumkin. Pansovetizm atamasi uzoq yillar davomida bir ittifoq doirasida yashash natijasida shakllangan ijtimoiy-madaniy yaqinlik, o'xshashlik, umumiylik hamda iqtisodiy bog'liqlik asosida mutlaqlashtirilgan tushunchadir. Biroq, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bunday qarashlarning orqasida oddiy odamlarning ongini chalg'itish, ularga eskirgan va umrini o'tagan g'oyalarni qayta jonlantirish, shu yo'l bilan eski siyosiy tuzumlarni qayta tiklash va milliy o'zlikni yo'qotishga qaratilgan tahdidlar yashiringanligini unutmaslik zarur. [1]

Asosan, bunday g'oyalarni tarqatishda zamonaviy ommaviy axborot vositalari psixologik ta'sir qilishning yangi usullaridan keng foydalanmoqda. Milliy tarix va madaniyatimizga xos milliy qadriyatlarni ochiqchasiga kamsitish, ularni pastga urish, ayrim tarixiy voqea-hodisalarni umuman yo'qdek ko'rsatishga urinishlar uchraydi. Jahon madaniyati va ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning yurtimiz bilan aloqasi yo'qdek ko'rsatilishi ham bunday strategiyalarning bir qismi hisoblanadi. Shuningdek, mintaqa davlatlari o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqarish va jahon ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavurlar paydo bo'lishiga qaratilgan harakatlarni doimo diqqat markazida tutishimiz zarur.

Borgan sari inson ongini va qalbini egallash uchun kurash tobora keskin tus olyapti. Mafkura maydonida turli qarashlar hukmronlikka intilishmoqda, bu tabiiy jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, umumiy e'tiqod asosida yakka mafkura hukmronligini ta'minlashga qaratilgan harakatlar dunyo miqyosida o'z ta'sirini kengaytirmoqda. Masalan, "diniy aqidaparastlik" shular jumlasidandir.

Ko'rinib turibdiki, bu diniy-siyosiy g'oya diniy asosdagi birlik g'oyasini birinchi o'ringa qo'yadi. Agar bu uyg'unlik mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ilmiy va texnik sohalarda hamkorlik qilishiga, ularning salohiyatini birlashtirishga hamda xalqlar taraqqiyotiga olib kelsa, buning yomon tomoni yo'qdek tuyuladi. Yuzaki qarashda bunday fikr haqiqatga yaqin ko'rinishi mumkin. Shu bois, bunday mafkura tarafdorlari o'z g'oyalarini aksariyat hollarda aynan shunday "beozor" va insonparvarona ko'rinishda taqdim etishga intiladilar. Albatta, biz musulmon xalqmiz. Biroq masalaning murakkab jihati shundaki, bunday kuchlar o'z tariximizni, ona tilimizni, betakror madaniyatimizni, jahon xalqlari orasidagi o'ziga xos o'rnimiz va taraqqiyot yo'limizni inkor qilishga urinmoqdalar. Bu haqiqatni tan olish yoki rad etish ularning ixtiyori. Ammo, ayniqsa yosh avlod ongiga bunday g'ayriilmiy qarashlarni singdirishga harakat qilayotganlariga befarq qarab bo'lmaydi. Zero, u insoniyatning diniy asosda qarama-qarshi qutblarga bo'linib ketishiga, ba'zan "sivilizatsiyalar to'qnashuvi" deb ataladigan hodisaning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda til, madaniyat va urf-odatlardagi umumiylik ya'ni etnik birlikka asoslangan holda yagona mafkuraviy maydonni shakllantirish borasida ham turli qarashlar mavjud. Bu qarashlarning shakllanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Har birining o'ziga xos jihatlari bor bo'lib, ular dunyoning mafkuraviy manzarasida o'z o'rnini egallashga intilmoqda.

Global dunyo maydonida mafkuraviy poligonlar tobora murakkablashib, g'oyaviy kurashlar yangi, ilg'or texnologiyalar, ayniqsa, axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida olib borilmoqda.[6] Axborot texnologiyalari orqali amalga oshirilayotgan g'oyaviy manipulyatsiyalar, propaganda va psixologik ta'sir usullari inson ongiga, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va fikriga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonlar nafaqat milliy xavfsizlikka, balki insoniyatning umumiy ma'naviy barqarorligiga tahdid solmoqda. Shuning uchun mafkuraviy immunitetni mustahkamlash va profilaktika tizimini yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida ko'rilishi lozim. Bu tizim milliy mafkura asosida shakllanishi zarur. Boisi, milliy mafkura bu mamlakat madaniyati, tarixi, qadriyatlari va o'zligini mujassam etuvchi g'oyaviy poydevor hisoblanadi. Milliy mafkuraviy tarbiya tizimi yoshlarni nafaqat tarixiy ildizlar bilan bog'lab, balki ularga tanqidiy fikrlash qobiliyatini berish orqali tashqi g'oyaviy bosimlarga qarshi immunitet yaratadi.

Hozirgi sharoitda yer yuzida sodir bo'layotgan turli mafkuraviy xurujlar millatchilik, ekstremizm, diniy aqidaparastlik, globalizmning ba'zi shakllari va boshqa ko'plab noxush oqimlar yoshlar ongida notog'ri qadriyatlar va qarashlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida, milliy birdamlik va ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashda milliy g'oyaning o'rni beqiyosdir. Milliy g'oya bu davlat va jamiyatning milliy manfaatlari, qadriyatlari hamda tarixiy tajribalari asosida shakllangan yagona mafkuraviy platforma bo'lib, u orqali xalq o'zligini saqlaydi, g'oyaviy mustaqillikni ta'minlaydi va zamonaviy globallashuv jarayonlarida o'z o'rnini topadi.

Bundan tashqari, milliy mafkura va uni mustahkamlovchi ta'lim-tarbiya tizimi yosh avlodni nafaqat xorijiy g'oyaviy tahdidlardan himoya qiladi, balki ularni zamonaviy, kreativ fikrlovchi, demokratik qadriyatlarni hurmat qiluvchi, o'z davlatining faol fuqarolari sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, siyosiy barqarorligi va xalqaro maydonda munosib o'rin egallashini ta'minlaydi. Shu bois, yurtimizda milliy mafkurani rivojlantirish, unga asoslangan mafkuraviy tarbiya va himoya tizimini yanada takomillashtirish, yoshlarni har qanday ekstremistik, terroristik va boshqa zararli g'oyalar ta'siridan samarali himoya qilish, ularni sog'lom ma'naviy muhitda tarbiyalash har bir fuqaro va davlat organlari zimmasidagi eng muhim vazifa sifatida qaralishi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab g'oyaviy ziddiyatlar va globallashuv sharoitida milliy mafkura nafaqat mustaqillik va suverenitetni saqlash, balki insoniyat taraqqiyotida barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan g'oyaviy-kulturoviy asosdir. Ushbu asos mustahkam bo'lgan joyda mafkuraviy barqarorlikni himoya qilish imkoniyati kengayadi, yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish aniq bo'ladi va mamlakatimiz yanada ravnaq topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М.Миллий тараққиёт йўлимизми қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. -Т.: “Ўзбекистон”, 2017. Б.-29.
2. Қ.Назаров. Ғарб фалсафаси. Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти. – Тошкент. –2004. -Б.58-59.
3. Панкрухин А.П. Маслоу. А “Маркетинг” Учебник. – М.: Омега-Л, 2009. – С. 120.
4. Маънавият асосий тушунчалар изохли луғати. – Т.: Ғ.Ғулом номидагинашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. Б.-408-409.
5. Юсупов Э. Фалсафа. – Т., Шарқ, 1999. -Б.301-313.

6. Жўраева С. Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф. – Т., “Ёшлар матбуоти”, 2023. -Б. 295.